



STRUCTURE AND MANAGEMENT SYSTEM OF THE UZBEK SSR

Toshmurodova Sarvinoz Quvondiq qizi¹, Ergashev Ahmad Abdug'affarovich², Bengmatov Alibek Qahramon o'g'li³

¹ Student of the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy,

² students of the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy,

³ students of the Denau Institute of Entrepreneurship and Pedagogy

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4996344>

ARTICLE INFO

Received: 05th June 2021

Accepted: 10th June 2021

Online: 15th June 2021

KEY WORDS

"People's House", "For the party", "Red Uzbekistan",
Uzkompartiya, VI Ivanov and A. Ikramov.

ABSTRACT

The article briefly describes the formation of the Uzbek SSR as a result of national territorial delimitation, its administrative division, industry and management system.

O'ZBEKISTON SSRNING TUZILISHI VA BOSHQARUV TIZIMI

Toshmurodova Sarvinoz Quvondiq qizi¹, Ergashev Ahmad Abdug'affarovich²,
Bengmatov Alibek Qahramon o'g'li³

¹ Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi, ² Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi, ³ Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti talabasi.

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 05-iyun 2021

Ma'qullandi: 10-iyun 2021

Chop etildi: 15-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

«Xalq uyi», «3a napmuu»,
«Qizil O'zbekiston»,
O'zkompartiya, V.I.Ivanov
va A.Ikromov.

ANNOTATSIYA

Maqolada milliy hududiy chegaralanish natijasida O'zbekiston SSR ning tashkil topishi, uning ma'muriy bo'linishi, sanoati va boshqaruv tizimi haqida qisqacha to'xtalib o'tilgan.

Turkistonda Sovetlar olib borgan shovinistik mustamlakachilik siyosati lenincha milliy siyosatning naqadar mudhish va dahshatli ekanligini fosh etishda yorqin namunadir. Bo'lib tashla, hokimlik qil! Sovetlar hukumati va kompartiya Turkistonda «Lenincha milliy siyosat» niqobi ostida jahon tarixida

ko'rilmagan manfur va reaksiyon siyosat olib bordi. Bu siyosatning bosh yo'nalishi «bo'lib tashla, hokimlik qil!» dan iborat bo'lib, u azal-dan, asrlar osha yagona va bir butun bo'lgan Turkistonni parchalab yuborishga qaratilgan edi.

1925-yil, 13-fevralda Buxoro shahrida maxsus qurilgan «Xalq uyi»da O'zbekiston



Sovetlarining I umumoz'zbek qurultoyi bo'lib o'tdi. Unda «O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasini tuzish to'g'risida» deklaratsiya qabul qilindi. Deklaratsiyada O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi tuzilganligi qonuniy rasmiylashtirildi. O'zbekiston Respublikasi SSSR tarkibiga kirdi. Qurultoyda respublika davlat hokimiyatining rahbar organi O'zbekiston SSRning 160 a'zosi va 44 nomzoddan iborat Markaziy Ijroiya Qo'mitasi saylandi.[1]

Yo'ldosh Oxunboboyev O'zbekiston SSR MIQning raisi bo'ldi. Shuningdek, Fayzulla Xo'jayev rahbarligida O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Soveti tarkibi tasdiqlandi. Shu munosabat bilan RKP(b) MQ O'rta Osiyo Byurosi nashri bo'lgan «За партии» jurnalida I.Xonsuvorovning O'zbekistonning davlat arboblari bergan bahosi g'oyatda o'rinlidir: Ana endi menga «Ozod sotsialistik O'zbekiston»ning mas'ul rahbarlari to'g'risida haqiqiy ma'lumot berishga ruxsat etsalaringiz: – «Okrug ijroiya komitetlari prezidiumi a'zolari va raislari arifmetikaning oddiy to'rt amalini ham bilishmaydi, hatto o'z tillarida ham qiynalib yozadilar. Parij va London shaharlari qaysi mamlakatning poytaxti ekanligini ham bilishmaydi, partiya tarixidan mutlaqo bexabar, partiya dasturini o'qib ham ko'rishmagan».

1925-yil so'nggi saylovda nihoyat O'zbekiston MIQ raisi etib saylangach, uning savodsizligi aniq bo'lib qoldi... Hozir Oxunboboyev shiddat bilan «ilm olishga kirishgan», u o'z ismini qoyil maqom qilib yoza oladi va o'qishni ham bir iloj qilib

Biroq shunday bo'lsa-da, mana shu chalasavod dehqon «asosan, yerli aholi vakillaridan iborat O'zbekiston hokimiyatini haqiqatan ham boshqaryapti»

deb jiddiy ayta olamizmi?» Eng ajablanarli joyi shundaki. O'zbekistonning bosh nashri «Qizil O'zbekiston» gazetasi o'zining 1925-yil, 23-avgust sonida «Barcha musulmon sharqi uchun sovet respublikalarning yorqin namunasi bo'lajak» O'zbekiston hukumatining tepasida savodsiz bir shaxs turganligidan faxrlanib yozgan. O'sha paytda O'zbekiston hukumatini boshqara oladigan zamonaviy bilim va malakaga ega bo'lgan o'qimishli bir rahbar nahotki respublikada topilmagan bo'lsa degan qonuniy savol har bir kimsaning xayolidan albatta o'tadi. Bunday rahbarlar so'zsiz ko'plab bor edi. Ammo sovetlarga o'qimishli, siyosiy jihatdan yetuk va iqtidorli rahbar emas, bosqinchi va mustamlakachilarning barcha talab va buyruqlarini quloq qoqmay bajaradigan qo'g'irchoq kerak edi.[2]

O'tkazilgan milliy davlat chegaralanishi natijasida O'zbekiston SSR tarkibiga quyidagi hududlar kirdi:

Sobiq Turkiston Respublikasidan Samarqand viloyatining Jizzax, Kattaqo'rg'on va Xo'jand uyezdlarining 41 volosti; Sirdaryo viloyati Toshkent va Mirzacho'l uyezdlarining 24 volosti; Farg'ona viloyati Andijon, Qo'qon, Namangan, Farg'ona uyezdlarining 70 volosti va 7 qishloq okrugi (Shohimardon, Vodil va boshqalar);

b) sobiq Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasidan Boysun, Buxoro, G'uzor, Qarshi, Karmana, Nurota, Shahrisabz, Sherobod va qisman Sariosiyo viloyatlar;

d) sobiq Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasidan 23 sovet (tuman) keyinchalik bular Gurlan, Yangi Urganch va Xorazm uyezdlarini tashkil etgan edilar.

Buxoro Xalq Sovet Respublikasi hamda Xorazm Xalq Sovet Respublikasi hududlarining, asosan, o'zbeklar va



qoraqalpoqlar yashaydigan qismlarida vujudga kelgan. 1924-yildan 1936-yilgacha O'zbekiston Sotsialistik Sovet Respublikasi (ruscha: Узбекская Советская Социалистическая Республика) deb atalgan.

Poytaxti 1925-yil fevraldan to may oyigacha Buxoro, 1925-yil maydan to 1930-yil dekabrgacha Samarqand, 1930-yil oxiridan Toshkent. Tarkibiga Qoraqalpog'iston ASSR kirgan. Respublika 11 oblastga bo'lingan, 156 rayon, 123 shahar, 98 shahar tipidagi posyolkasi bo'lgan.[3]

O'zbekiston SSR hududi shimol va shimoli-g'arbda Qozog'iston SSR, janubi-g'arbda Turkmaniston SSR, janubi-sharqda Tojikiston SSR, shimoli-sharqda Qirg'iziston SSR, janubida Afg'oniston bilan chegaradosh bo'lgan.

O'zbekiston SSR hududi respublika tashkil etilgan dastlabki yillarda 312.394 kv. km dan iborat bo'lgan. Shu jumladan O'zbekiston tarkibidagi Tojikiston ASSRning hududi (Xo'jand okrugidan tashqari) 135–620 kv.km edi. O'sha paytda O'zbekistonning aholisi (Tojikistondan tashqari) 3 million 963 ming 285 kishi O'rta Osiyo jumhuriyatlari aholisining yarmini tashkil etardi. 1962-yilda o'tkazilgan aholi ro'yxat ma'lumotlariga qaraganda O'zbekistonda (Tojikistondan tashqari) 4 million 447 ming 555 kishi yashagan. Ularning 47,2 foizi o'zbek, 7,8 foizi tojiklar, 5,6 foizi ruslar, 2,4 foizi qozoqlar, 2,04 foizi qirg'izlardan iborat edi. O'zbekiston SSRning poytaxti etib Samarqand shahri belgilandi. 1930-yilda poytaxt Toshkent shahriga ko'chirildi. O'zbekiston SSRning tashkil etilganligi 1927-yil, mart O'zbekiston SSR birinchi Konstitutsiyasining qabul qilinishi (O'zbekiston Sovet Sotsialistik

Respublikasining II qurultoyida qabul qilingan) bilan mustahkamlandi. Mazkur Konstitutsiyaga 1924-yilda qabul qilingan SSSR Konstitutsiyasi asos – ko'chirma bo'ldi. [4]

Milliy chegaralanish bilan ayni paytda iqtisodiy chegaralanish ham o'tkazildi, ya'ni ilgari Turkiston, Buxoro va Xorazm Respublikalari ixtiyorida bo'lgan barcha moddiy boyliklar: zavodlar, fabrikalar, yer maydonlari, chorva mollari, madaniy oqartuv muassasalari kabilar davlat tashkilotlari o'rtasida taqsimlanadi. Ana shu taqsimot asosida O'zbekistonga 1195 ming desyatina sug'oriladigan yerlar, 185 ta sanoat korxonasi, 2,590 ming bosh chorva mollari tegdi. 1924– 1925-yillarda respublika jami aholisining 85 foizi qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tarmog'ida band edi.

1925-yil, 8-fevralda Buxoroda O'zbekiston kompartiyasining I qurultoyi o'z ishini boshladi. Unda sovetlar ittifoqi kommunistik (bolsheviklar) firqasi tashkil etildi. Firqa markaziy qo'mitasi saylandi. V.I.Ivanov va A.Ikromovlar markaziy qo'mitaning mas'ul kotiblari etib saylandilar.

O'zbekiston SSR tashkil etilishi munosabati bilan respublika jamoat tashkilotlari ham shakllantirildilar. Shunday qilib, markaziy sovetlar hukumati va kompartiya O'rta Osiyo jumhuriyatlarida milliy davlat chegaralanishini o'tkazdi va yagona turkiy xalqlarni parchalanishini ta'minlab, milliy xonadonlarga bo'lib yubordi. Bu bilan u o'lkada buyuk rus mustamlakachiligi siyosatini yurgizish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratdi va shovinistik tartib-qoida va idora qilish talablariga javob bera oladigan boshqarish uslubini joriy etdi.



Boshqaruv tizimi .O'zbekiston SSR siyosiy hayotida O'zkompartiya (1925-yil fevralda Buxoroda tuzilgan) yetakchi rol o'ynagan. O'zSSR da hokimiyatning qonun chiqaruvchi oliy organi – O'zSSR Oliy Soveti (1937 yildan) hamda ijro qiluvchi va boshqaruvchi oliy organi – O'zSSR Ministrlar Soveti (1946 yildan) hisoblangan. Davlat hokimiyatining mahalliy organlari – 2,5 yilga saylanadigan xalq deputatlarining oblast, rayon, shahar, posyolka, qishloq va ovul sovetlari bo'lgan. Biroq amalda hokimiyat Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi (KPSS)ning respublikadagi bo'limi – O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi va markaz gumashtalari qo'lida bo'lgan. O'zKP(b) e'tiborini sovet hokimiyatini mustahkamlashga, bosmachilik va mahalliy mulkdorlarga qarshi kurashga, sotsialistik industrilashtirishni amalga oshirishga, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirishga, madaniy inqilobni o'tkazishga qaratgan. O'zbekiston SSR tashkil qilinganidan so'ng respublika davlat boshqaruvi organlari Ittifoq organlari tartibida va ulardan andoza olingan holda tuzilgan. Bu ittifoqdosh respublikalarning markazdan turib boshqarishning eng oson va oddiy, shu bilan birga mustahkam shakli edi.

Mehnat ahlining eng ommaviy tashkiloti – kasaba uyushmalari ham partiya qo'mitalariga to'la-to'kis qaram bo'lib qolgan. Mustabid tuzum yosh avlodni kommunistik ruhda tarbiyalashga muntazam e'tibor qaratgan. Bu ishlar bilan Butunittifoq leninchi kommunistik yoshlar soyuzi (VLKSM) ning O'zbekistondagi organi – O'zbekiston leninchi kommunistik yoshlar soyuzi (O'zLKSM) shug'ullangan.[5] O'zbekiston SSR Konstitutsiyasida O'zbekiston SSR Sovet Ittifoqi tarkibidagi teng huquqli suveren respublika sifatida o'z hududida davlat hokimiyatini mustaqil ravishda amalga oshiradi, chet davlatlar bilan aloqa bog'lash, ular bilan shartnomalar tuzish hamda diplomatik va konsullik vakillari ayirboshlash, xalqaro tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish huquqiga ega deb belgilab qo'yilgan bo'lsa ham, amalda O'zbekistonning huquqi Rossiya SFSR tarkibidagi oblastlar yoki avtonom respublikalar huquqi bilan tenglashtirilib qo'yilgan edi. Yuqori lavozimdagi kadrlarni tayinlash yoki olib tashlash markazdan turib hal qilinardi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. „O'zbekistonning yangi tarixi“, 2-kitob [O'zbekiston sovet mustamlakachiligi davrida], Toshkent, 2000;
1. Azizxo'jayev A., „Mustaqillik: kurashlar, iztiroblar, quvonchlar“, Toshkent, 3. Alimova D. A., Golovanov A. A., „O'zbekiston mustabid sovet tuzumi davrida: siyosiy va mafkuraviy tazyiq oqibatlari“, Toshkent, 2000;
2. „Tarix shohidligi va saboqlari“, Toshkent, 2001;
3. „O'zbekiston tarixi“ (1917-1991 yil), Toshkent, 2002;